



ARAB TILIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

G‘aniyev Akmaljon Adxamjon o‘g‘li

abdulloh1995muhammad@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi atf harflari (حروف العطف), xususan و، ف، ثَمَّ harflarining ilmiy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu harflarning sintaktik (e‘rob), semantik, tarixiy-qiyosiy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqiladi. Maqolada ko‘rsatilishicha, atf harflari nafaqat jumla ichidagi so‘zlarning grammatik holatini belgilovchi vosita, balki ular o‘rtasidagi nozik semantik farqlar (tartib bor yoki yo‘qligini, ketma-ketlik, vaqt oralig‘i, tanlov) Qur‘oni karim va hadis matnlarini to‘g‘ri tushunish hamda shar‘iy hukmlarni chiqarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, ushbu harflarning semit tillari oilasidagi qiyosiy-tarixiy ildizlari, tarjimashunoslik, chet tili sifatida arab tilini o‘qitish va zamonaviy kompyuter lingvistikasi (NLP, diskurs tahlili) sohalaridagi amaliy qo‘llanilishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari atf harflarini o‘rganish nahv ilmi doirasidan tashqariga chiqib, tafsir, fiqh, tarjimashunoslik va hisoblash tilshunosligi kabi bir qancha sohalar uchun muhim metodologik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: atf harflari, حروف العطف, نحو (nahv ilmi), و، ف، ثَمَّ، e‘rob, ma‘tuf va ma‘tufun alayh, semantik tahlil, tafsir ilmi, usul al-fiqh, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, semit tillari, tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi, diskurs tahlili.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируется научное значение союзных частиц (حروف العطف) арабского языка, в частности букв و، ف، ثَمَّ. В исследовании рассматриваются синтаксический (e‘rob/и‘раб), семантический, историко-сопоставительный и прикладной аспекты данных частиц. Показано, что



союзные частицы выступают не только средством, определяющим грамматическое состояние слов внутри предложения, но и то, что тонкие семантические различия между ними (наличие или отсутствие последовательности, временной интервал, выбор) играют решающую роль в правильном понимании текстов Священного Корана и хадисов, а также в выведении шариатских предписаний. Кроме того, в статье освещаются сравнительно-исторические корни данных частиц в семье семитских языков, а также их прикладное применение в переводоведении, в преподавании арабского языка как иностранного и в современной компьютерной лингвистике (NLP, анализ дискурса). Результаты исследования показывают, что изучение союзных частиц выходит за рамки науки синтаксиса (нахв) и приобретает важное методологическое значение для целого ряда дисциплин, включая тафсир, фикх, переводоведение и вычислительную лингвистику.

Ключевые слова: союзные частицы, حروف العطف, نحو (наука синтаксиса), وَ، اَوْ، ثُمَّ، فِ، وِ'раб, ма'туф и ма'туфун алайх, семантический анализ, наука тафсира, усул аль-фикх, сравнительно-историческое языкознание, семитские языки, переводоведение, компьютерная лингвистика, анализ дискурса.

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the scholarly significance of the conjunctive particles (ḥurūf al-ʿaṭf, حروف العطف) in the Arabic language, with particular focus on the particles وَ (wa), فِ (fa), ثُمَّ (thumma), and اَوْ (aw). The study examines the syntactic (iʿrāb), semantic, historical-comparative, and applied dimensions of these particles. It is demonstrated that conjunctive particles function not merely as markers determining the grammatical case of words within a sentence, but that the subtle semantic distinctions among them — concerning the presence or absence of sequentiality, temporal interval, and alternative choice — play a decisive role in the accurate interpretation of the Holy Qur'an and Hadith texts, as well as in the derivation of Islamic legal rulings (aḥkām sharʿiyya). The article further addresses the comparative-historical roots of these particles within the Semitic language family, alongside their applied relevance in translation studies, the teaching of Arabic as a



foreign language, and contemporary computational linguistics, including natural language processing (NLP) and discourse analysis. The findings indicate that the study of conjunctive particles extends beyond the domain of syntax (naḥw) proper, acquiring substantial methodological significance for a range of disciplines, including Qur'anic exegesis (tafsīr), Islamic jurisprudence (uṣūl al-fiqh), translation studies, and computational linguistics.

Keywords: conjunctive particles, ḥurūf al-‘aṭf, naḥw (syntax), wa, fa, thumma, aw, i‘rāb, ma‘tūf and ma‘tūf ‘alayh, semantic analysis, tafsīr, uṣūl al-fiqh, comparative-historical linguistics, Semitic languages, translation studies, computational linguistics, discourse analysis.

Kirish. Arab tilini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganishda harflarning, xususan atf harflarining (حروف العطف – bog‘lovchi harflarning) tahlil qilish, o‘rganish bir necha jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, sintaktik (e‘rob) tahlil nuqtai nazaridan atf harflari – وَ (va), فَ (fa), ثُمَّ (so‘ng), أَوْ (yoki), لَكِنْ, حَتَّى, لَا, بَلْ kabi yordamchi so‘zlar – jumla ichidagi so‘zlarning grammatik holatini (e‘rob belgisini) o‘zgartiradi yoki o‘z holida saqlaydi. Ma‘tuf (bog‘langan so‘z) o‘zining ma‘tufun alayhiga (bog‘langan so‘zga) e‘rob jihatidan ergashadi. Shu sababli bu harflarni chuqur bilmasdan turib, klassik arab matnlari, xususan Qur‘oni karim va hadis matnlarini, to‘g‘ri grammatik tahlil qilib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, semantik aniqlik masalasi muhim. Har bir atf harfi o‘zaro yaqin, ammo bir-biridan farqli ma‘nolarning nozik tomonalarini ifodalaydi. Tafsir ilmida (Qur‘on tafsiri) ana shu nozik farqlar oyatlarning ma‘nosini to‘g‘ri tushunishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bitta harfning noto‘g‘ri talqini butun hukm yoki ma‘noni o‘zgartirib yuborishi mumkin. Buning xatari esa juda katta.

Uchinchidan, amaliy ahamiyati ham katta. Tarjimashunoslikda bu harflarning aniq ma‘nosini bilmasdan sifatli tarjima qilib bo‘lmaydi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va kompyuter lingvistikasida arab tili uchun avtomatik tahlil tizimlarini yaratishda atf harflarining funksional xususiyatlari hisobga olinadi. Chet tili sifatida arab tilini



o'qitishda esa bu mavzu o'quvchining matn qurish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy bo'g'inlaridan biridir.

Demak, atf harflarini o'rganish nafaqat nahv (grammatika) ilmi, balki tafsir, tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik va zamonaviy kompyuter lingvistikasi kabi bir qancha sohalar uchun amaliy va metodologik ahamiyatga ega. Quyida bu yordamchilardan eng muhimlari – “vov”, “fa”, “summa” va “av” yordamchilari chuqur tahlil qilinadi.

Avvalo, atf (bog'lash) – bu boshqa so'zga yoki jumlagi maxsus harflardan biri vositasi orqali bog'langan tobe (ergashgan) so'z yoki gapdir. Bog'lovchi harfdan keyin keladigan tobe so'z *ma'tuf* (bog'langan) deb, undan oldingi asosiy so'z esa *ma'tuf alayhi* (bog'langan narsa, ya'ni tobe ergashgan so'z) deb ataladi. Ma'tuf so'z e'robda – raf (bosh kelishik), nasb (tushum kelishigi), jarr (qaratqich kelishigi) yoki jazm (majzum (sukunli) holat) jihatidan ma'tuf alayhiga to'liq ergashadi.

Bog'lovchi harflar to'qqizta bo'lib, ular quyidagilar: *vov* (و), *fa* (ف), *summa* (ثم), *hatto* (حتى), *av* (أو), *am* (أم), *bal* (بل), *lo* (لا) va *lakin* (ولكن).

1. Vov (واو)

Bu bog'lovchi harflar ichida eng ko'p qo'llaniladigan va ular orasida eng yetakchi o'rinni egallaydigani bo'lib, uning ma'nosi – birlashtirish va sheriklik (ma'noda yoki mavjud bo'lishda uning ikki tomoni sherik ekanini bildiruvchi harf)dir. So'zlarni bog'lashda ham bu harf aynan shu ikki ma'nodan xoli bo'lmaydi, chunki u bir so'zni boshqa so'zga, yoki bir gapni boshqa bir gapga bog'laydi. Uning vazifasi voqealar yoki so'zlar o'rtasida tartib bor ekanini (ketma-ketligini) ko'rsatish emas. Shuning uchun bu yordamchi ma'no-mazmun jihatidan keyin sodir bo'lgan narsani ham bog'lab kela oladi. ma'no va hukm berilishi jihatidan oldin bo'lganni ham bog'lab kela oladi. Masalan, Alloh taoloning:

وَلَقَدْ أَرْسَلْنَا نُوحًا وَإِبْرَاهِيمَ

“Va, albatta, Biz Nuh va Ibrohimni (payg'ambar qilib) yubordik” (al-Hadid surasi, 26-oyat) - degan kalomida Nuh alayhis salom Ibrohim alayhis salomdan oldin yashagan. Bu o'rinda tartib bilan bog'lagan. Boshqa oyatda bo'lsa;



كَذَلِكَ يُوحِي إِلَيْكَ وَإِلَى الَّذِينَ مِنْ قَبْلِكَ اللَّهُ الْعَزِيزُ الْحَكِيمُ

“Aziz-u, o‘ta hakimli zot bo‘lmish Alloh senga ham va sendan oldin o‘tganlarga ham shunday vahiy qilur” (ash-Shuro surasi, 3-oyat) – degan. Bu oyatda voqelikda keyin bo‘lgan narsa – Allohning Rasululloh sallohu alayhi vasallamga vahiy yuborishi, undan oldin bo‘lgan – boshqa u zot sallohu alayhi vasallamdan oldin yashab o‘tgan payg‘ambarlarga vahiy yubirishidan oldin kelyapti. Agar tartibni ifodalaganda bu holatda so‘zlar yoki gaplar orasini bog‘lab kela olmagan bo‘lar edi.

Bu harf birinchi misoldagi kabi otni otga, yoki ikkinchi misoldagi kabi otniolmoshga bog‘lab kelishi mumkin. Shuningdek fe‘lni fe‘lga ham bog‘laydi. Biroq bu holatda ikkala fe‘lning foili (bajaruvchisi, egasi) bitta bo‘lishi shart.

2. Fa (ف)

Bu harf tartib va ketma-ketlikni (ta‘qibni) ifodalaydi. Albatta unda “vov” yordamchisi ifodalagan ma‘no – sheriklik ma‘nosi mavjud. Bunday tartib ba‘zan ma‘noda bo‘ladi. Masalan: “حضر الحسن فعلي” (Hasan keldi, so‘ngra Ali keldi”. Ba‘zan esa faqat zikrda, ya‘ni gapirish tartibidagi ketma-ketlikni ifodalaydi. Bunga misol Alloh taoloning:

وَنَادَى نُوحٌ رَبَّهُ فَقَالَ رَبِّ إِنَّ ابْنِي مِنْ أَهْلِي

“Va Nuh o‘z Robbisiga nido qilib dedi: “Ey Robbim! Albatta, o‘g‘lim mening ahlimdandir” (Hud surasi, 45-oyat)

Yuqoridagi oyatda Nuh alayhis salomning nido qilishi bilan uning gapirgan gapi bitta narsa bo‘lib, ular o‘rtasida tartib yo‘q. Shuning uchun ham u faqat so‘zlarni gap tarkibida joylashishidagi tartibni ifodalamoqda xolos.

Bunda tartib vaqt jihatidan hech qanday orada kechikish bo‘lmagan paytdagina ishlatiladi, ya‘ni ikki narsa orasida vaqt bo‘shlig‘i qolmagan bo‘ladi. Masalan, Alloh taoloning:

الَّذِي خَلَقَ فَسَوَّى

“(U Zot) yaratdi va (mukammal) ravishga keltirdi” (al-A‘lo surasi, 2-oyat) – degan kalomida bo‘lgani kabi.



Fa harfi ko‘pincha sabab-natija ma’nosini ham bildiradi, agar ma’tuf (bog‘langan qism) to‘liq gap yoki ism-sifat (ism foil, sifati mushtaqqa) shaklida bo‘lsa. Birinchi holatga misol – Alloh taoloning: “Shunda Muso unga musht urdi, natijada u(ning ishi) tugadi” (al-Qasas surasi, 15-oyat) – degan kalomidir. Ikkinchi holatga esa Alloh taoloning quyidagi kalomi misol bo‘la oladi: “So‘ngra, albatta, sizlar, ey adashganlar va (haqiqatni) yolg‘on deguvchilar! Albatta, zaqqum daraxtidan yeguvchilarsizlar, qornlaringizni undan to‘ldiruvchilarsizlar, so‘ngra uning ustidan qaynoq suvdan ichguvchilarsizlar” (Voqea surasi, 51–54-oyatlar). Bu yerda “مائلون” (to‘ldiruvchilar) va “شاربون” (ichguvchilar) kabi ism-sifat shakllari *fa* harfi orqali bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular orasidagi sabab-natija bog‘lanishini ifodalaydi.

3. Summa (ثَمَّ)

Bu harf tartibni va ikki bir-biriga bog‘langan so‘zlar o‘rtasida vaqt bo‘ladi (orada ma’lum bir kechikish) ma’nosini ifodalaydi. Masalan, Alloh taoloning: “So‘ngra uni o‘lik qildi va qabrga qo‘ydi, keyin xohlagan vaqtida uni qayta tiriltirur” (Abasa surasi, 21–22-oyatlar) – degan. Bu oyatda “qabrga qo‘yish” (al-iqbor) “o‘lim” (al-imata)ga *fa* harfi orqali bog‘langan, “qayta tiriltirish” (al-inshar) esa “qabrga qo‘yish”ga *summa* harfi orqali bog‘langan. Ya’ni qayta tiriltirish o‘limdan keyin to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki muayyan vaqt orasi bilan (kechikib) yuz beradi.

Ibn Molik *fa* bilan *summa* o‘rtasidagi farqni bayon qilib, o‘zining mashhur ramziy baytida shunday deydi: “*Fa* – uzilishsiz (bevosita, tezkor) tartib uchun, *summa* esa – uzilish bilan (orada fosila qolgan) tartib uchundir.”

4. Av (أَوْ)

Bu harf bir necha xil ma’noni ifodalashi mumkin bo‘lib, ulardan ba’zilarini quyida keltiramiz:

- *Tanlov, ixtiyor berish ma’nosi*: bu talab (buyruq yoki istak) mazmunidagi gapdan keyin keladi. Ba’zi olimlarning fikricha, bu – ikki narsani birlashtirib qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatda sobit bo‘ladigan ma’no. Ya’ni o‘zining asl ma’nosini ifodalash mumkin o‘rinda hosil bo‘ladi. Masalan: “Hindni yoki uning singlisini nikohlab ol” degan jumlada bo‘lgani kabi.



- *muboh qilish ma'nosi (ibaha)*: bu ham talab mazmunidagi gapdan keyin keladi. Ba'zi olimlarning fikricha, bu – ikki narsani birlashtirib qo'llash mumkin bo'lgan holatdir. Masalan: “Olimlar yoki zohidlar bilan birga o'tir” degan jumlada bo'lgani kabi.

Ibaha bilan takhyir o'rtasidagi farq shundaki, ibahada ikki narsani birlashtirib qo'llash mumkin, Agar “Olimlar yoki zohidlar bilan birga o'tir” deyilsa, ikkala guruh bilan ham birga o'tirish mumkin, shuningdek faqat bitta guruh bilan o'tirib, ikkinchisi bilan o'tirmaslik ham mumkin. Taxyirda esa ikkalasini birlashtirib qo'llash mumkin emas, chunki nikoh aqdida ikki opa-singilga bir paytni o'zida nikohlanish joiz emasdir.

- *Shubha (ikkilanish) ma'nosi*: Alloh taoloning: “Biz bir kun yoki bir kunning bir qismicha turdik” (Kahf surasi, 19-oyat) – degan kalomida bo'lgani kabi.

- *Mubham (noaniqlik) ma'nosi*: Alloh azza va jallaning: “Albatta, biz yoki sizlar haq yo'lda yoxud ochiq adashuvdamiz” (Saba' surasi, 24-oyat) — degan kalomida bo'lgani kabi.

- *Izrob (fikrdan voz kechib, boshqa fikrga o'tish) ma'nosi*: bu holatda *av* harfi *bal* (بَل) harfining vazifasini bajaradi. Siybavayhning fikricha, bu ma'no ikki shart bilan joiz bo'ladi: birinchisi - undan oldin inkor yoki ta'qiq (nahy) kelishi, ikkinchisi - amilning (boshqaruvchi so'zning) takrorlanishi. Masalan: "Zayd turmadi, yoki (balki) Amr turmadi" yoki “Zayd turmasin, yoki (balki) Amr turmasin” degan jumlalarda bo'lgani kabi.

- *Taqsim (bo'laklarga ajratish) ma'nosi*: masalan: “Kalima — ism, yoki fe'l, yoki harfdir” degan jumlada bo'lgani kabi.

- *Istisno'da “illo” (faqat, bundan boshqa) ma'nosi*: bu holatda undan keyingi muzori' fe'l yashirin “an” (أَنْ) yordamida nasb holatiga o'tadi. Masalan: “Albatta, uni o'ldiraman, yoki u taslim bo'lmasa” deganda, asl ma'no “uni o'ldiraman, faqat taslim bo'lishidan boshqa holda emas” tarzida bo'ladi.

- *“Ilo” (to, gacha) ma'nosi*: bu ham o'zidan oldingisi kabi, undan keyingi muzore fe'lning yashirin “an” bilan nasb holatiga o'tishini taqozo etadi. Masalan: “Albatta, sendan ajralmayman, yoki haqqimni ado etmaguningcha” deganda, asl ma'no



"haqqimni ado etguningga qadar" tarzida bo'ladi. Bu bog'lovchining bundan boshqa ko'plab ma'nolari ham mavjuddir.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi atf harflari - xususan و، ف، ثَمَّ، أُو - sodda grammatik unsurlar emas, balki til tizimining sintaktik, semantik, tarixiy va amaliy qatlamlarini o'zida birlashtiruvchi murakkab ilmiy hodisadir. Sintaktik nuqtai nazardan, atf harflarining har biri ma'tuf bilan ma'tufun alayh o'rtasidagi e'rob munosabatini belgilaydigan funksional vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu harflarsiz murakkab jumla tuzilishini, xususan Qur'oni karim va hadis matnlaridagi ko'p qatlamli sintaktik bog'lanishlarni to'g'ri tahlil qilish mumkin emasligi aniqlandi. Semantik tahlil natijalari و، ف، ثَمَّ، أُو harflari o'rtasidagi nozik, ammo prinsipial farqlarni yaqqol namoyon etdi: و - neytral, tartibsiz birlashtiruvchi vosita sifatida; ف - tezkor ketma-ketlik va sabab-natija munosabatini ifodalovchi vosita sifatida; ثَمَّ - vaqt oralig'i va martaba farqini bildiruvchi vosita sifatida; أُو esa tanlov, gumon yoki ayirish ma'nolarini ifodalovchi ko'p qirrali vosita sifatida o'z aksini topdi. Ushbu farqlarning tafsir ilmida va shar'iy hukmlarni chiqarishda (xususan kaffarat va tahorat oyatlari misolida ko'rsatilganidek) hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi – bitta harfning talqinidagi farq butun bir huquqiy yoki mazhabiy ajralishga olib kelishi mumkinligi - bu harflarning sof nazariy emas, balki amaliy-metodologik qiymatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Qiyosiy-tarixiy tahlil esa ushbu harflarning semit tillari oilasiga mansub qadimiy meros ekanligini, shu sababli ularni o'rganish nafaqat arab tilshunosligi, balki umumiy semitologiya doirasida ham qimmatli material berishini ko'rsatdi.

Shunday qilib, و، ف، ثَمَّ، أُو harflarining chuqur tahlili nahv va balog'at ilmlarining nazariy asoslarini mustahkamlash bilan birga, tafsir, fiqh, tarjimashunoslik hamda zamonaviy kompyuter lingvistikasi kabi amaliy sohalar uchun ham muhim ilmiy-metodologik baza yaratadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu harflarning boshqa atf harflari (أَمْ، لَا، بَلْ، لَكِنْ، حَتَّى) bilan qiyosiy tahlili, shuningdek ularning korpus lingvistikasi vositalari yordamida statistik tahlili istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariy asarlarining manbalari. Monografiya. – T.: Bookmany print, 2022. – 182 b.
2. Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – 188 b.
3. Shayx Alouddin Mansur. Qur’oni Azim muxtasar tafsiri. – T.: Mavarounnahr, 2019. – 981 b.
4. Askaraliyevna, S. N. The Significance of “Asosu-l-baloga” Work in the Development of Arabic Dictionary. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 5(9), 45-48.
5. Sulaymonova, N. (2024). The Origins of the Literary Heritage of Scholar Mahmud Zamakhshari. SPAST Reports, 1(1).
6. Sulaymonova, N. A. (2021). Approach to the history of Arabic lexicography. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (101), 465-468.
7. Nigora, S. (2021). On The Manuscript Copies Of" Al Kashshof" By Makhmud Zamakhshari. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education, 12(7), 2032-2042.
8. Sulaymanova, N. (2019). Confidential Review at Literary Heritage Of Mahmud Zamakhshariy. European Journal of Humanities and Social Sciences, (6), 162-166.
9. Sulaymonova, N. (2023). A great scientist of Khorezm. International Journal of Economics and Society, 2(1).
10. O. Hamrayeva. Ona tili: ma’ruzalar to ‘plami. – T.: Akademnashr, 2018. 368 b.
11. N.Ibrohimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi. I jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. – B. 25.